Sheraliyeva Saida Azatovna , Independent researcher	



PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARI MAHSULOTLARI EKSPORTINI MOTIVATSIYALASH MEXANIZMI

Mansurov Saidxo'ja Kamalovich

Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda paxta-to'qimachilik klsterlarning chuqur qayta ishlash va qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish hamda ularni bugungi kundagi tashqi bozorlarga eksport qilishdagi imtiyozlar hamda mexanizmi ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: klaster siyosati, noiste'mol maxsulotlar, ip-kalava, mato, matoni bo'yash va pardoshlash, trikotaj mato va tayyor mahsulotlar, bojxona tarifi, mahsulotni sertifikatsiyalash, eksport mexanizmi, global raqobat muhiti, transformatsiya, aylanma mablag'lar, mahsulot assortimenti.

Abstract: This article develops the advantages and mechanisms of cotton-textile clusters in our country for deep processing and production of value-added products and their export to foreign markets.

Key words: cluster policy, non-consumer products, yarn, fabric, dyeing and finishing of fabrics, knitted fabric and finished products, customs tariff, product certification, export mechanism, global competitive environment, transformation, working capital, product range.

Аннотация: В данной статье разработаны преимущества и механизмы хлопково-текстильных кластеров в нашей стране для глубокой переработки и производства продукции с добавленной стоимостью и ее экспорта на внешние рынки.

Ключевые слова: Кластерная политика, непотребительская продукция, пряжа, ткань, крашение и отделка тканей, трикотажное полотно и готовая продукция, таможенный тариф, сертификация продукции, механизм экспорта, глобальная конкурентная среда, трансформация, оборотный капитал, ассортимент продукции.

KIRISH

Paxta sanoatini transformatsiyalash ketidan to'qimachilik klasterlarning tashkil etilganligi mahsulotlarni chuqur qayta ishlash va qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan har xil turdagi tayyor mahsulotlarni ishlab chiqish va ularni global raqobat muhitiga bardosh berish omillarini keltirib chiqaradi. Malumki, to'qimachilik klasterlar faqatgina paxtani qayta ishlash va yakuniy bosqich faoliyati bilan cheklanmasdan, balki boshlang'ich jarayon hisoblangan fermerlar va klasterlar ishtirokida tuzilgan paxta xom ashyo yetkazib berish shartnoma shartlarini o'z vaqtida va sifatli bajarilishini inobatga oladi. Bunda fermerlar tomonidan xom ashyo narxini sun'iy ko'tarilib ketmasligini oldi olinib, mahsulot tannarxini kamayishi va raqobatbardoshlikni mustahkamlanishiga olib keladi. Shunday ekan, to'qimachilik klasterlar tomonidan tayyor mahsulotlarini eksport qilish jarayonida butun tizim shakllanishi kerak.

Bularning barchasi boshqaruv muhitini to'g'ri tashkil etilishi va Davlat tomonidan sohani rivojlantirilishiga oid qabul qilingan qarorlar va ularning amaldagi ijrosi hisoblanadi. Hozirgi kunda to'qimachilik sanoatini rivojlantirish davlat dasturlari doirasida to'qimachilik klasterlarni paxtani chuqur qayta ishlash natijasida qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport qilish ko'rsatkichlari yetarli darajada o'z ifodasini topmagan.

Bunda ayrim turdagi klasterlarni ishlab chiqarish ko'rsatkichi faqtgina ip-kalava xom ashyo bilan cheklanib qolayotganligi va chuqur qayta ishlash zanjirini shakllanishida ayrim kamchiliklar kuzatilayotganligini ko'rish mumkin. Shundan kelib chiqib, tarmoq korxonalari o'rtasidagi integratsiya aloqalarini rivojlantirishning birinchi bosqichidagi dolzarb vazifalardan biri klaster siyosatini shakllantirish hisoblanadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

To'qimachilik klasterlarning iqtisodiy va eksport salohiyatini oshirishda olimlarning bir qancha takliflari ilgari surilgan. Mahalliy olimlarimizdan A. Soliyev va Z. Xakimovlar maqolalarida "Klaster nazariyasi va uni amaliyotda qo'llayotgan mamlakatlar tajribasidan Namangan viloyatida foydalanish imkoniyatlari" keltirilgan ^[1]. Ushbu olimlarning aynan ushbu hududni tanlanishiga viloyatning tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmi yuqoriligidadir. A. Sh. Bekmurodov va Yang Song Be "O'zbekiston to'qimachilik sanoati strategiyasini rivojlantirishda klaster yondashuvi" ^[2] deb nomlangan monografiyasida klaster mohiyati va ularning raqobatbardoshligi, xorijiy mamlakatlar, kompaniyalar va mahsulotlar kesimida erishilgan natijalar misollar orqali ko'rsatib berilgan.

Amerika olimlari M. Porter "Raqobat usulnigi nazariyasi" ^[3], M. Enrayt, S. Rezenfeld, P. Maskell va M. Lorensenlar "mintaqaviy klasterlar konsepsiyasi" ^[4], A. Marshall "Sanoat hududlar nazariyasi" ^[5], P. Bekatin "Italyan sanoat ogruglari nazariyalari"ni ilgari surishgan ^[6]. Yuqorida qayd etilgan xorij olimlarning nazariyalarida klasterlar bu raqobat ustunligini amalga oshirishda yuqori samara hisoblanib ta'lim, fan, texnologik, iqtisodiy va boshqa xizmat ko'rsatuvchi subyektlar faoliyati bilan uyg'unlashgan tizimi ekanligi takidlanadi.

Klasterlar bilan bog'liq jarayonlar va hududlarni rivojlantirishda Rossiya olimlari Yu. S. Artomonova, B. B. Xurustalev ^[7] tomonidan o'rganilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Izlanish davomida iqtisodiy, statistik, qiyosiy tahlil, xronologik kuzatish va matematik usullardan foydalanildi. Shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlarning mavzu doirasida chop etilgan ilmiy ishlaridan ham foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Klaster siyosatining tarkibiy qismlaridan biri klaster shakllantirishning tashkiliy asoslarini yaratish va uning iqtisodini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan Hukumat miqyosida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar hisoblanadi. Klaster siyosati paxta urug'ini ekish, shundan hosil bo'lgan paxta xom ashyoni to'qimachilik va tikuvchilik tarmoq fabrikalarga yetkazib berish samaradorligini va hududlar iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan tashkiliy, huquqiy va moliyaviy mexanizmlarini o'z ichiga olgan vosita sifatida qaraladi.

Malumki, klasterlarning dastlabki faoliyati paxta urug'ini yerga ekishdan boshlanganligini inobatga olinsa, so'nggi olti yillikda O'zbekistonda qishloq xo'jaligi sohasida, jumladan, paxtachilik sohasida keng qamrovli islohotlar ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu borada, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrda "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5853-sonli farmoni qabul qilingan ^[8].

Farmonda iste'mol va noiste'mol mahsulotlarni yetishtirishda yer maydonlaridan oqilona foydalanish va suv resurslarini yetkazib berilishidagi kamchiliklar hamda ilm-fan yutuqlaridan foydalanishning pastligi shu bilan birgalikda eksport hajmini ko'paytirishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar farmonda qayd etilgan bo'lib, ushbu vazifalarni bajarish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyada belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" ishlab chiqilgan. Strategiyada ustuvor vazifalarni amalga oshirishda quyidagilar belgilangan:



1-rasm: Qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha 2020-2030-yillarga mo'ljallangan vazifalar


Yuqorida qayd etilgan farmonning ustuvor vazifalardan kelib chiqib, ushbu huquqiy hujjat mamlakatimiz to'qimachilik klasterlarining boshqaruv tizimini mutanosib va adolatli bo'lishini taminlaydi. Bunda klasterlarning faoliyati qishloq xo'jaligi, qayta ishlash va yakuniy bosqichlardagi ish jarayonlarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishini taminlaydi. Jumladan, fermerlar tomonidan klasterlarga paxta xom ashyoni yetkazib berishdagi o'zaro huquqiy munosabatlarni teng manfaatli tarzda tartibga solish va klasterlarning ichki tizimidagi qayta ishlash darajasi hamda to'liq zanjiridagi uzilishlarni oldini olish bo'yicha tizimli muammolarning hal qilinishini belgilab beradi.

Bu borada, 2022-yil ma'lumotlariga tayanib, to'qimachilik klasterlarning soni 134 ta tashkil etgan. To'qimachilik klasterlar tomonidan paxta tolasi ishlab chiqarish darajasi 100 foiz deb olinsa, qayta ishlashning navbatdagi yani toladan ip kalava, mato, matoni bo'yash va pardoqlash, trikotaj mato va tayyor mahsulot ishlab chiqarish bosqichlarida passiv natijalar ko'zga tashlanadi. Fikrimizcha, tijorat banklari tomonidan ishlab chiqarish loyixalariga ajratilayotgan imtiyozli kreditlar tadbirkorlar tomonidan boshqa maqsadlarga sarflanayotganligi shuningdek, xususiy va davlat tomonidan moliyalashtirish ishlarining sustligi, klasterlar tashkil topishda iqtisodiy samarasini baholashning ilmiy metodologiyasi mavjud emasligi yoki pastligi ularning ilmiy muassasalar va ishlab chiqarish o'rtasidagi bog'liqlikning yetarli darajaga mavjud emasligini ifodalaydi.

Yuqorida qayd etib o'tilgan omillar mamlakat to'qimachilik klasterlarning iqtisodiy salohiyatini izdan chiqishiga tasir ko'rsatib, budget mablag'larining tanqisligiga, ishsizlikning oshishiga, ilm-fan, innovatsiya va integratsiya aloqalaridan orqada qolishligiga, jahon global raqobat muhitiga, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar kirib kelishi buzilishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-fevraldagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4186-sonli qarori qabul qilingan ^[9]. Qarorda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida chuqur qayta ishlashni tashkil etish orqali klaster modeliga o'tish, chuqur qayta ishlash darajasini oshirish va tayyor mahsulot shakliga kelgan to'qimachilik mahsulotlarni eksportga jalb qilish bo'yicha strategik ahamiyatga ega bir qancha vazifalar belgilangan.

Yuqorida qayd etilgan qarorda eksportni amalga oshirishda hamda qo'llab-quvvatlanishida quyidagi mexanizmlardan foydalanilgan.



2-rasm: To'qimachilik korxonalarining eksport salohiyatini oshirish choralari



Yuqorida qayd etilgan Prezident qarorida asosiy jihat klasterlar tizimiga qaratilgan va shu yo'l orqali ishlab chiqarish va eksport hajmini ko'paytirish maqsad qilingan. Turli xil tarmoq klasterlar ichida to'qimachilik klasterlarning o'z o'rnini mavjud. Malumki, paxta sanoatini transformatsiya qilinishi chuqur qayta ishlashning yanigicha innovatsion klaster tizimiga o'tilishi bilan bog'liqdir. Qarorda to'qimachilik korxonalari va klasterlarning 80 foiz mahsulotlarni eksport qilganlarga tijorat banklari tomonidan berilgan kredit mablag'lari foizini qoplab berish nazarda tutilgan. Shu bilan birgalikda to'qimachilik korxonalar tomonidan bildirilgan takliflardan kelib chiqib bir qancha eksport faoliyatiga oid imtiyozlar ham keltirilgan.

Bugungi kunda tizimli muammolardan bu eksport faoliyatini amalga oshirgan korxonalarga qo'shimcha qiymat solig'ini qaytarib berish 2-3 oylarga cho'zilib ketilishi oqibatida korxonalarda aylanma mablag'lar tanqisligiga olib kelib, ishlab chiqarish va eksport faoliyatiga salbiy tasir ko'rsatganligini ifodalaydi. Bu borada, tadbirkorlar tomonidan kelib tushgan bir qancha murojaatlarda aynan shu masala ko'tarilgan va uning yechimi O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 12-fevraldagi PQ 4186-sonli^[9] qaroriga muvofiq 7 kun muddat ichida QQS tadbirkorlik subyektlariga qaytarib berish belgilab qo'yilgan.

Savdoni liberallashtirish, mamlakatlar o'rtasida tovar ayirboshlash, to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar jalb etishda to'siq bo'layotgan muammolarni oldini olishda o'zaro xamkorlik mexanizmlari muxim ahamiyat kasb etadi.

Bu borada, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining parlamentga murojaatnomasining mazkur yo'nalishiga to'xtalib quyidagi jumlaning keltirgan. "Ishomchim komil, yangi O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi hamkorlik ko'lamining kengayishi ikki tomonlama aloqalarning mazmun-mohiyatini boyitish, qiziqarli loyihalarni ilgari surib, yangi marralarni zabt etishga xizmat qiladi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan yaqin hamkorlikda mamlakatimizga kengaytirilgan savdo preferensiyalari "GSP+" tizimini tatbiq etish bo'yicha muxim qadamlar tashlandi. Ushbu tizim kelgusida Respublikamizda ishlab chiqariladigan 6 mingdan ziyod turdagi mahsulotlarni Yevropa bozoriga boj to'lamasdan olib kirish imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, birgina to'qimachilik mahsulotlarining yillik eksportini 300 million dollarga oshirish uchun sharoit yaratadi" deya ta'kidlagan^[10].

Malumki, O'zbekiston to'qimachilik mahsulotlarini Koreya, Xitoy, Turkiya va Yevropa Ittifoqi davlatlari bozorlariga eksport qilishda bojxona tarif cheklovlarni bekor qilish yoki kamaytirish masalasida O'zbekiston to'qimachilik mahsulotlarini Yevropa Ittifoqining GSP+imtiyozli tizimidan unumli foydalanishidir. Undan oldin "Cotton campaign" xalqaro koalitsiyasi O'zbekiston paxtasini va undan tayyor bo'lgan mahsulotlarni xarid qilmaslikka qaror qilgan edi. Malumki, dunyoning mashhur 331 brend firma va kompaniyalar tomonidan mahalliy paxtamizdan hosil bo'lgan mahsulotlarni sotib olmaslik shartlariga imzo chekkandi.

Bular 550 millionga yaqin aholiga ega bo'lgan Yevropa bozorini yopib qo'ygandi. Malum vaqtdan so'ng paxtadan tayyor bo'lgan mahsulotimizni sotib olmaslik to'g'risidagi kelishuv o'z kuchini yo'qotishga sabab bo'ldi. Shu bilan birga endilikda mamlakatimiz tadbirkorlari tomonidan "GSP+" preferensiyalar tizimi orqali Yevropa bozoriga 6200 turdagi mahsulotlarni imtiyozli bojlar bilan olib chiqish imkoniyati yo'lga qo'yildi.


Shundan so'ng Yevropa bozorlariga eksport qilish hajmi har yili ortib bormoqda. "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi ma'lumotlariga tayanib, 2020-yilda Yevropa Ittifoqi davlatlariga eksport qilish hajmi 258,4 mln. dollarni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022-yilga kelib, 868,8 mln.dollarni yoki 2020-yilga nisbatan o'sish surati 3 barobarni tashkil etganligini bildiradi. Umumiy eksport hajmi 2020-yilda 1869,3 mln.dollar, 2022-yilda 3157,8 mln.dollarni 2020-yilga nisbatan o'sish surati 168,9 foizni tashkil qildi^[11].

Umuman olganda, paxta-to'qimachilik klasterlarni tashkil etish faoliyatini muvofiqlashtirish davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanib kelinmoqda. To'qimachilik klasterlarni qishloq xo'jalik faoliyati, chuqur qayta ishlash va eksport faoliyatini amalga oshirish va boshqarish innovatsion mexanizmlardan biri sanaladi. Klasterlarni shakllantirilishi sanoat korxonalari faoliyatini optimallashtiradi.

Paxta-to'qimachilik klasterlari boshqa soha klasterlardan farqli sanaladi. Ushbu tuzilmada paxta tolasini yetishtiruvchilar, yetishtirilgan paxta xom ashyosini saqlovchi punktlar va xom ashyoni dastlabki qayta ishlash korxonalari, ip-kalava ishlab chiqarishga ixtisoslashgan to'qimachilik korxonalari, matoni to'qish va bo'yash korxonalari hamda tikuv va tayyor mahsulotga ixtisoslashgan korxonalar kiradi. Paxta-to'qimachilik klasterlarida faoliyat olib borayotgan barcha ishlab chiqarish obyektlar yaxlit tizim tashkil qilib, mustahkam aloqaga kirishadilar.

Mamlakatda olib borilayotgan klaster siyosatida asosan ikki yo'nalishda ish olib boriladi:

- To'liq qayta ishlash zanjirini taminlash va raqobatbardoshli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish;
- Tayyor mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarda sotish.



3-rasm: Paxta to'qimachilik klasterlarning ishlab chiqarish va eksportini amalga oshirish mexanizmi

Yuqoridagi rasmda Paxta-to'qimachilik klasterlarning chuqur qayta ishlash bosqichlaridagi jarayonlar va ularni eksportini amalga oshirish mexanizmi keltirilgan.


Klasterlar ikki bosqichdan tashkil topgan bo'lib, bular urug'chilik klasteri bunga urug'ni ekish, g'o'za yetish-tirish va paxta xom ashyosini terib olish. Klaster tashkiloti o'z ichiga paxta xom ashyoni dastlabki qayta ishlash, tolani qayta ishlash undan yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlar ishlab chiqishni bildiradi. Tayyor bo'lgan mahsulotlarni ichki bozorlarga yo'naltirish hamda ularni eksport qilishda mahsulotni sertifikatlash lozim bo'ladi. Tashqi bozorlarga mahsulotlarni yo'naltirishda eksport qilishni uch xil shaklini keltirish mumkin. Bular to'g'ridan to'g'ri eksport bo'lib, klasterlar o'zlarining xorijiy mamlakatlardagi savdo uylariga va xorijiy xamkorlariga bevosita eksportni amalga oshirishlari mumkin.

Mahsulotlarni eksport qilishning ikkinchi yo'li mahalliy tashqi savdo kompaniyalar tomonidan amalga oshirishdir. Bunda xizmat ko'rsatganligi uchun eksport shartnomasidagi summadan malum ulush olib qolinadi. Tashqi bozorlarga chiqishning uchinchi yo'li bir necha korxonalar ishtirokida sanoat kooperatsiyasi asosida amalga oshiriladi. Bunda hududlardagi klasterlar xorijiy xamkorlaridan tushgan buyurtmalarini o'z vaqtida bajarishini taminlash uchun Hududlardagi klasterlar bilan xamkorlikda ish olib borishadi.

O'zbekiston Respublikasi to'qimachilik klasterlarning barqaror ishlashini taminlash to'liq ishlab chiqarish zanjirini shakllantirish hamda hozirgi vaqtda keskin global raqobat muhitida tayyor mahsulotlarni eksport qilishda raqobat muhitiga bardoshlilikini hamda ishlab chiqarish va eksportini motivatsiyalash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-yanvardagi "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-2 sonli farmoni qabul qilindi ^[12].

Qayd etilgan farmonda 2023-yil yakuniga qadar eksport salohiyatini oshirish, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini 65 foizdan 81 foizga oshirish, 35 mingta yangi ish o'rinlari yaratish, gazlama, trikotaj mato va tikuv-trikotaj mahsulotlari eksport qiluvchi korxonalarni uzluksiz revolver kreditlash asosida aylanma mablag'lar bilan taminlash uchun Eksportni rag'batlantirish agentligi huzuridagi Eksportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga 3 yil muddatga yillik 4 foiz stavkada ajratish, mahalliy korxonalar mahsulotlariga xalqaro sertifikatlarni taqdim etuvchi uchta yirik xorijiy kompaniyalar vakolatxonalari tashkil etish, fermerlar va klasterlar o'rtasida paxta yetishtirish o'rtasida tuziladigan shartnomani shaffof mexanizmini ishlab chiqish qabi vazifalar belgilab berildi.

Yuqoridagilar e'tiborga olingan holda, paxta-to'qimachilik klasterlar eksportini motivatsiyalash mexanizmi 4-rasmda keltirib o'tildi.



4-rasm: Paxta-to'qimachilik klasterlarining eksportini motivatsiyalash mexanizmi

4-rasmda paxta-to'qimachilik klasterlarni eksportini motivatsiyalash mexanizmi keltirilgan. Ushbu jadvalda Davlat islohotlari, iqtisodiy islohotlar va tashkiliy masalalar joy olgan. Davlat islohotlariga to'qimachilik sanoatini rivojlantirishdagi qaror va farmonlar, shuningdek "xalqaro koalitsiya" tomonidan paxta xom ashyoni sotib olishdagi baykotni yechilishi hamda maxalliy mahsulotlarni Yevropa Ittifoqi bozorlariga kirishda (GSP+) imtiyozli tizimidan foydalanish masalalari keltirilgan.

Klasterlarni iqtisodiy omillariga ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirishdagi soliq imtiyozlari, tijorat banklari tomonidan past foizda kredit mablag'lar bilan taminlanishi belgilangan.

Jadvalning tashkiliy masalalariga xalqaro brendlarni O'zbekistonda faoliyat yuritishlari uchun maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etilishi hamda xorijiy mamlakatlarda savdo uylarini tashkil etish, tayyor mahsulotlar eksportini 3,3 barobarga oshirish kabi masalalar joy olgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

To'qimachilik klasterlari mamlakat iqtisodiyoti o'sishida shuningdek millatimiz turmush tarzini yuksaltirishda dolzarb ahamiyatga ega ekanligini namoyon etadi. Shu o'rinda, klaster va to'qimachilik korxonalarida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar nafaqat tadbirkorlar uchun balki yurtning o'zbek brendi nomi asosida ishlab chiqarilgan tayyor tikuv-trikotaj mahsulot assortimentlari kengayishiga, mamlakatimizning chekka hududlariga mahalliy va to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar kirib kelishi natijasida, hududning sanoat ulushining o'sishiga shuningdek, hudud aholining turmush tarzi va ish bilan bandlik ko'rsatkichlarga va nixoyat hududiy eksport ko'rsatkichlarini taminlanishga sabab bo'ladi.

Klasterlar eksportini motivatsiyalash mexanizmini takomillashtirishda avvalam bor xo'jalik subyektlarning O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan yaratib berilayotgan iqtisod va soliqdagi imtiyozlardan to'g'ri foydalanish, bu borada klasterlarning har bir xo'jalik subyektini to'liq ishlashi uchun aylanma mablag'lari hamda past foizli kredit mablag'lar bilan taminlashni takomillashtirish, eksport geografiyasini kengaytirish maqsadida



xalqaro yarmarkalarda faol ishtirokini taminlash zarurdir. Shu bilan birgalikda Yevropa Ittifoqi mamlakatlar bozorlariga kirishda talab etiladigan sertifikatsiyalashtirish ishlarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish lozim deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Soliyev va Z.Xakimovlar "Klaster nazariyasi va uni amaliyotda qo'llayotgan mamlakatlar tajribasidan Namangan viloyatida foydalanish imkoniyatlari" "Biznez-ekspert"jurnali 2014-yil 1-son, 52-57-bet.
2. A.Sh.Bekmurodov va Yang Song Be "O'zbekiston to'qimachilik sanoati strategiyasini rivojlantirishda klaster yondashuvi". Monografiya, 2006-yil, 112 bet.
3. Портер М.Международная конкуренция. –М.: Международные отношения, 1993. С.51.
4. Enright, M (1996) "Regional Clustersand Economic Development: A.Research Agenda", in Staber, U.,Schaefer, N. And Sharma, B, (Eds). "Business Networks: Prospects for Regional Development, Berlin". Walter de Gruyter, p.190-213.
5. Маршалл А. Принципы экономической науки, I-III. Пер. с англ.- М.-Издательская группа "Прогресс", 1993
6. П.Бераттин- Becattini G. From Marshalls to the Italian "Industrial Districts"/ www.copetitivness.org
7. Кластерные политики и кластерные инициативы: теория, методология, практика. (Коллективная монография). Минобразования и науки РФ, Минэкономразвития РФ, Правительство Пензенской области. Пенза-2013.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5853 sonli farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-fevraldagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4186 sonli qarori.
10. <https://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-evropa-ittifoqining-gsp-dasturiga-azo-boldi-bu-qandaj-imkoniyatlar-beradi>
11. "O'zto'qimachiliksanoat" uyushmasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-yanvardagi "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-2 sonli farmoni.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.